Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	



OLIJ TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OlishNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI



Saidov Muxammad Ali Hakimovich

Toshkent davlat agrar universiteti
Agroiqtisodiyot kafedrasini professori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
[ORCID: 0000-0003-1996-2878](https://orcid.org/0000-0003-1996-2878)



Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich

TMC instituti
Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasini
professori v.b.
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
[ORCID: 0000-0003-0182-4303](https://orcid.org/0000-0003-0182-4303)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim sohasida malakalarni xalqaro tan olish masalasi globallashuv sharoitida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi YUNESKO Global konvensiyasining mazmuni va amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Maqolada Bolonya jarayoni bilan Global konvensiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritiladi. Muallif tan olish prezumpsiyasi tamoyilining ahamiyatini asoslaydi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Ilmiy yangilik xalqaro tan olish mexanizmlarining milliy ta'lim siyosatiga ta'sirini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, malakalarni tan olish, akademik mobillik, Bolonya jarayoni, YUNESKO Global konvensiyasi, globallashuv, O'zbekiston.

Abstract. The article examines the issue of international recognition of higher education qualifications under globalization. The study aims to reveal the content and practical significance of the UNESCO Global Convention. The relationship between the Bologna Process and the Global Convention is analyzed. The importance of the principle of presumption of recognition is substantiated. Higher education reforms in the Republic of Uzbekistan are examined. The scientific novelty lies in identifying the impact of international recognition mechanisms on national education policy development.

Key words: higher education, recognition of qualifications, academic mobility, Bologna Process, UNESCO Global Convention, globalization, Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируется проблема международного признания квалификаций в сфере высшего образования в условиях глобализации. Цель исследования заключается в раскрытии содержания и практического значения Глобальной конвенции ЮНЕСКО. Рассматривается взаимосвязь Болонского процесса и Глобальной конвенции. Обосновывается значение принципа презумпции признания. Проанализированы реформы системы высшего образования Республики Узбекистан. Научная новизна заключается в выявлении роли международных механизмов признания в развитии национальной образовательной политики.

Ключевые слова: высшее образование, признание квалификаций, академическая мобильность, Болонский процесс, Глобальная конвенция ЮНЕСКО, глобализация, Республика Узбекистан.



KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat resurslarining xalqaro mobilligi, bilimga asoslangan iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda inson kapitali uchun global raqobat oliy ta'lim tizimlari o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlash masalasini dolzarb etib qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim sohasidagi malakalarni xalqaro miqyosda tan olish mexanizmlarining shakllanishi va takomillashuvi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning obyekti oliy ta'lim tizimlari o'rtasidagi xalqaro hamkorlik jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olishning xalqaro mexanizmlari, xususan, YUNESKOning Global konvensiyasi va uning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning maqsadi YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasining mazmuni, asosiy tamoyillari hamda milliy ta'lim tizimlariga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Bolonya jarayonining shakllanishi va mavjud cheklovlarini tahlil qilish;
- Global konvensiyaning asosiy tamoyillarini aniqlash;
- malakalarni tan olishda prezumpsiya tamoyilining amaliy ahamiyatini ochib berish;
- O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro tan olish mexanizmlari bilan uzviy bog'lash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim sohasida malakalarni xalqaro tan olish masalasi so'nggi o'n yilliklarda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar, asosan, oliy ta'lim tizimlarini muvofiqlashtirish, akademik mobillikni rivojlantirish hamda ta'lim natijalarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.

Xorijiy tadqiqotlarda Bolonya jarayoni oliy ta'lim sohasida mintaqaviy muvofiqlashtirishning eng muhim institutsional modeli sifatida talqin etiladi. Yevropa oliy ta'lim makonida ko'p bosqichli ta'lim tuzilmasining joriy etilishi, kredit-modul tizimining keng qo'llanilishi hamda ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarining shakllanishi mazkur jarayonning asosiy natijalari sifatida baholanadi [1]. Ayrim mualliflar Bolonya jarayonining ta'lim tizimlarini to'liq bir xillashtirishni emas, balki ular o'rtasida ishonch va shaffoflikka asoslangan hamkorlikni ta'minlashga xizmat qilganini ta'kidlaydilar [2].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda Bolonya jarayonining muayyan cheklovlari ham qayd etilgan. Xususan, uning mintaqaviy xarakterga egaligi, Yevropa hududidan tashqaridagi ta'lim tizimlari uchun to'liq mos kelmasligi hamda malakalarni tan olish amaliyotida byurokratik to'siqlarning saqlanib qolayotganligi ta'kidlanadi [3]. Bu holat oliy ta'lim sohasida global miqyosda umumiy va universal yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda xalqaro ilmiy manbalarda YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasi alohida o'rganilmoqda. Ushbu hujjat oliy ta'lim malakalarini tan olishda adolatli, shaffof va asoslangan qarorlar qabul qilish tamoyillarini belgilab bergan global huquqiy mexanizm sifatida baholanadi [4]. Ayrim tadqiqotlarda Konvensiyaning asosiy yangiligi sifatida "tan olish prezumpsiyasi" tamoyili ko'rsatiladi, ya'ni malakani tan olmaslik istisno holat sifatida qaralib, u albatta asoslantirilishi lozim [5].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida, asosan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda inson kapitalini shakllantirishda oliy ta'limning ahamiyati yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda xalqaro tan olish mexanizmlarining milliy ta'lim siyosatiga ta'siri yetarlicha tizimli va kompleks tahlil qilinmagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada Bolonya jarayoni va YUNESKO Global konvensiyasining o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ularning O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'unligi alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur yondashuv tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullari tashkil etadi.

Normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olishga oid xalqaro hujjatlar, jumladan, YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasi hamda Bolonya jarayoni doirasida qabul qilingan asosiy deklaratsiya va kelishuvlar o'rganildi. Ushbu usul mazkur hujjatlarning mazmuni, huquqiy maqomi va amaliy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.



Qiyosiy-taqqoslash usuli Bolonya jarayoni va YUNESKO Global konvensiyasining maqsadlari, asosiy tamoyillari hamda qo'llanilish doirasini solishtirishda qo'llanildi. Mazkur usul orqali ushbu ikki mexanizmning o'ziga xos farqli jihatlari va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari aniqlanib, ularning milliy ta'lim tizimlariga ko'rsatadigan ta'siri baholandi.

Shuningdek, tizimli yondashuv usulidan foydalangan holda oliy ta'lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv xalqaro tan olish mexanizmlarini milliy ta'lim siyosati, akademik mobillik hamda inson kapitalini rivojlantirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi.

Qo'llanilgan metodologiya tadqiqot maqsadlariga erishish, asosli nazariy xulosalar chiqarish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy-metodik asosni ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim sohasida malakalarni xalqaro tan olish mexanizmlarini tahlil qilish jarayonida, avvalo, Bolonya jarayoni hamda YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasining institutsional xususiyatlari va ularning qo'llanilish doirasi o'rganildi. Mazkur ikki mexanizm turli darajada va turli kontekstlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning umumiy strategik maqsadi oliy ta'lim tizimlari o'rtasida ishonch, shaffoflik va taqqoslanish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Bolonya jarayoni Yevropa mintaqasida oliy ta'lim tizimlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, u uch bosqichli ta'lim tuzilmasi (bakalavriat – magistratura – doktorantura), kredit-modul tizimi (ECTS) hamda ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarining joriy etilishi orqali malakalarni taqqoslash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon akademik mobillikni oshirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, malakalarni avtomatik tan olishni kafolatlamaydi hamda asosan Yevropa hududi bilan chegaralanib qolmoqda.

YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasi esa ushbu masalaga global miqyosda yondashuvni taklif etadi. Konvensiyada tan olish jarayonining asosiy tamoyillari sifatida kamsitmaslik, shaffoflik, asoslanganlik hamda oqilona muddatlarda qaror qabul qilish belgilangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Konvensiyaning eng muhim innovatsion jihati "tan olish prezumpsiyasi" tamoyilidir. Mazkur tamoyilga muvofiq, agar malakalar o'rtasida muhim farqlar mavjudligi asoslanmagan bo'lsa, tegishli malaka tan olinishi lozim.

Mazkur mexanizmlarning qiyosiy tahlili ularning o'zaro inkor etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, Bolonya jarayoni mintaqaviy darajada strukturaviy va akademik taqqoslanishni ta'minlasa, YUNESKO Global konvensiyasi ushbu yondashuvni global miqyosga olib chiqadi hamda turli ta'lim tizimlari o'rtasida universal huquqiy asosni shakllantiradi.

Quyidagi jadvalda Bolonya jarayoni va YUNESKO Global konvensiyasining asosiy umumiy va farqli jihatlari tizimli tarzda umumlashtirilgan.

1-jadval. Bolonya jarayoni va YUNESKO Global konvensiyasining oliy ta'limda malakalarni tan olishdagi asosiy xususiyatlarining qiyosiy tahlili

Mexanizm	Qamrov doirasi	Asosiy maqsad	Asosiy tamoyil	Natija
Bolonya jarayoni	Mintaqaviy (Yevropa)	Ta'lim tizimlarini muvofiqlashtirish	Strukturaviy taqqoslanish	Akademik mobillikning oshishi
YUNESKO Global konvensiyasi	Global	Malakalarni adolatli tan olish	Tan olish prezumpsiyasi	Xalqaro tan olish jarayonining soddalashuvi

O'zbekiston Respublikasi misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur xalqaro mexanizmlar bilan mantiqan va izchil uyg'unlashib bormoqda. Xususan, kredit-modul tizimining joriy etilishi, oliy ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi hamda akademik mobillikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi taqqoslanish darajasini sezilarli darajada oshirmoqda.

YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishi xalqaro tan olish mexanizmlarining huquqiy asosini mustahkamlab, milliy malakalarning xorijiy davlatlarda tan olinishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil natijalari Konvensiyaning samarali amalga oshirilishi milliy darajada axborot almashinuvi tizimlarini rivojlantirish, malakalarni baholash tartib-taomillarining shaffofligini ta'minlash hamda tegishli institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab etishini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, oliy ta'lim sohasida malakalarni xalqaro tan olish mexanizmlari zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim tizimlarining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Bolonya jarayoni hamda YUNESKOning oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha Global konvensiyasi turli darajada va turli kontekstlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi oliy ta'lim tizimlari o'rtasida ishonch, shaffoflik va taqqoslanishni ta'minlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bolonya jarayoni asosan mintaqaviy doirada ta'lim tizimlarini muvofiqlashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, YUNESKO Global konvensiyasi ushbu tajribani global miqyosga olib chiqadi. Ayniqsa, tan olish prezumpsiyasi tamoyilining joriy etilishi malakalarni tan olish jarayonida subyektiv yondashuvlarni kamaytirish, adolatli va asoslangan qarorlar qabul qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur xalqaro mexanizmlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Xususan, kredit-modul tizimining joriy etilishi, akademik mobillikni kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari tarmog'ining izchil rivojlanishi milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. YUNESKO Global konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi ushbu islohotlarning mantiqiy va institutsional davomi sifatida baholanadi.

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish bo'yicha milliy axborot tizimini takomillashtirish hamda uni xalqaro standartlarga moslashtirish;
- xalqaro tan olish jarayonlarida ishtirok etuvchi vakolatli institutlar o'rtasida institutsional hamkorlikni kuchaytirish;
- malakalarni baholash mezonlarining shaffofligini oshirish va ularni ochiq axborot manbalarida muntazam e'lon qilib borish;
- akademik mobillik dasturlarini kengaytirish orqali milliy malakalarning xalqaro miqyosda tan olinishini rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Bolonya jarayoni va YUNESKO Global konvensiyasi O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun bir-birini inkor etuvchi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlardan samarali foydalanish milliy ta'lim tizimini global ta'lim makoniga integratsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The Bologna Declaration of 19 June 1999: Joint declaration of the European Ministers of Education. Bologna, 1999.
2. European Higher Education Area (EHEA): Official website. URL: <https://www.ehea.info>
3. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2023.
4. UNESCO. Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education. Paris: UNESCO, 2019.
5. UNESCO. Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education: Text and status. – Paris: UNESCO. – URL: <https://www.unesco.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
